



UDK: 37.016:811:316.7

Zebiniso ALLAYAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: zeboallayorova51@gmail.com
Nilufar JALILOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O‘zMU professori, DSc N.Sadullayeva taqrizi asosida

CHET TILINI O‘ZLASHTIRISH JARAYONIDA MADANIY MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada chet tilini o‘rganish jarayonida madaniyatga yo‘naltirilgan o‘qitish strategiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashtirish sharoitida chet tilini samarali o‘zlashtirish nafaqat lingvistik bilimlarni egallashni, balki o‘rganilayotgan til madaniyatini tushunishni ham talab qiladi. Tadqiqot davomida o‘zbek va ingliz madaniyatiga xos ayrim madaniy tushunchalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning til o‘rganish jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. Natijalar madaniyatga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ va pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek, madaniy komponentlarni til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: chet tilini o‘rganish, madaniyatga yo‘naltirilgan ta‘lim, madaniyatlararo kommunikatsiya, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, til va madaniyat integratsiyasi, qiyosiy tahlil, madaniy moslashuv, lingvomadaniyat.

STRATEGIES FOR DEVELOPING CULTURAL ADAPTABILITY IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the importance of culture-oriented teaching strategies in foreign language learning. In the context of globalization, effective language acquisition requires not only linguistic knowledge but also an understanding of the cultural background of the target language. The study presents a comparative analysis of selected cultural concepts in Uzbek and English cultures and their role in the language learning process. The findings show that culture-oriented teaching strategies positively influence students' communicative and pragmatic competence. Furthermore, integrating cultural elements into language teaching contributes to the development of intercultural communicative competence.

Keywords: foreign language learning, culture-oriented education, intercultural communication, communicative competence, pragmatic competence, language and culture integration, comparative analysis, cultural adaptation, linguocultural studies.

СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОЙ АДАПТИВНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОСВОЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматривается значение культурно-ориентированных стратегий обучения в процессе изучения иностранного языка. В условиях глобализации эффективное овладение иностранным языком требует не только лингвистических знаний, но и понимания культурных особенностей изучаемого языка. В исследовании проведён сравнительный анализ некоторых культурных понятий узбекской и английской культур и их роли в процессе изучения языка. Результаты показали, что культурно-ориентированные стратегии обучения способствуют развитию коммуникативной и прагматической компетенции учащихся. Интеграция культурных элементов в процесс обучения также способствует формированию межкультурной коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: изучение иностранного языка, культурно-ориентированное обучение, межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, интеграция языка и культуры, сравнительный анализ, культурная адаптация, лингвокультурология.

Kirish. Globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida chet tillarini o‘rganish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda chet tilini o‘zlashtirish faqat grammatik qoidalar va lug‘at boyligini egallash bilan cheklanib qolmay, balki ushbu til sohibi bo‘lgan xalqning madaniy qadriyatlarini, kommunikativ me‘yorlari va ijtimoiy xulq-atvor modellari bilan tanishishni ham talab etadi. Har bir madaniyatning o‘ziga xos bo‘lgan so‘zlashish ushuli va shakl shamoyili mavjud bo‘lib ularni boshqa tillarga tarjima qilish yoki tushinish uchun insonda ko‘pgina to‘siqlar yuzaga keladi. Bu jarayonda ulardan faqatgina asosiy bilimlar talab qilinishidan tashqari stilistik mahorta va bilim ham talab

qilinadi. Chunki o‘zga tildan ona tilimizga tarjima qilayotgan jarayonda ba‘zi so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qila olmaymiz, ya‘niki so‘zlar yakka holatda boshqa ma‘no, matn ichida kelganda esa u lug‘atda kitoblarda berilgan ma‘noda emas, balki mingga moslashgan holatda umumiy ma‘no kelib chiqadi. Natijada esa, ko‘p o‘quvchilar yangi tilni o‘rganish jarayonida shu kabi qiyin vaziyatlarga duch kelishadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olmagan holda olib borilgan til ta‘limi o‘quvchilarning real muloqot vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqotga kirisha olmasligiga sabab bo‘ladi. Chet tilini o‘rganishda madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda

alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon til o'rganuvchining faqat lingvistik emas, balki madaniy savodxon shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Madaniyatga yo'naltirilgan til o'qitish strategiyalari tilni o'rganish jarayonini sun'iy mashqlar doirasidan chiqarib, real muloqot vaziyatlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvda o'quvchi yetarli darajada bilim oluvchi emas, balki faol muloqot ishtirokchisi sifatida shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilini o'qitishda madaniy komponentning ahamiyati ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, tadqiqotlar asosan til va madaniyatning uzviy bog'liqligi hamda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish masalalariga qaratilgan. Tadqiqotchilar tilni madaniy muhitidan ajratib o'qitish real muloqot jarayonida pragmatik xatolarga olib kelishini ilmiy asosda ta'kidlaydilar. Xitoylik tadqiqotchi Li Sun o'zining "Teaching Culture in the Foreign Language Classroom" (2013) nomli maqolasida madaniy bilimlar chet tilini o'rganayotgan o'quvchilarning nutqni tushunishi va uni vaziyatga mos holda qo'llashiga bevosita ta'sir ko'rsatishini empirik tadqiqotlar asosida isbotlaydi. Olimning fikricha, madaniyatni til ta'limiga moslashuvchan muloqotni qismlarini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekistonlik olim A.Erkinov "Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo kommunikatsiya va uning metodik asoslari" (2025) nomli ilmiy ishida madaniyatlararo muloqot muhitini to'rt asosiy qismga ajratadi va ularning o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanishini asoslab beradi. Muallif, shuningdek, madaniy shok, stereotiplar va etnosentrizm kabi psixologik omillar chet tilini o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Madaniyatga yo'naltirilgan yondashuvning amaliy jihatlari D.X.Xodjayevning "Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning samaradorligi" (2023) nomli ilmiy maqolasida yoritilgan. Muallif chet tili darslarida madaniyatlararo dialog, qiyosiy tahlil va muhokama elementlaridan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ faolligi hamda tanqidiy fikrlashini sezilarli darajada oshirishini amaliy misollar orqali ko'rsatadi. Shuningdek, M.T.Shadjikova, E.T.Annayeva va G.A.Xudayberovaning "Chet tilini o'zlashtirishni rivojlantirish: samarali o'qitish strategiyalari va texnikalari" (2024) nomli ilmiy maqolasida autentik materiallardan foydalanish, kommunikativ metodlar hamda madaniy moslashuvchanlik elementlari chet tilini o'zlashtirish samaradorligini oshirishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur tadqiqot uchun Li Sun va A.Erkinov izlanishlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Li Sun tomonidan ilgari surilgan madaniy bilimlar va pragmatik kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi g'oya ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi. Shu bois,

1-jadval. O'zbek va ingliz madaniyatiga xos tushunchalarning qiyosiy tahlili

№	O'zbek madaniyatiga xos tushunchalar	Ingliz (g'arb) madaniyatiga xos tushunchalar
1	Choyxona	Tea culture
2	Chopon	Queue culture
3	Kurash	Personal space
4	Sumalak	Christmas traditions
5	Navro'z	Small talk
6	Palov (Osh)	Fish and chips
7	Mehmondo'stlik	Gentleman culture
8	Kattalarga hurmat	Hollywood culture
9	Beshik to'yi	Baseball
10	Mahalla	Community culture

Quyidagi jadval asosida O'zbekiston va ingliz (g'arb) madaniyatining ayrim jihatlari qiyosiy tarzda tahlil qilish mumkin. Bu misollar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi hamda turli xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini yoritadi. O'zbek madaniyatida choyxona muhim ijtimoiy maskan hisoblanadi. Choyxona

mazkur maqolada madaniyatga yo'naltirilgan strategiyalarning chet tilini o'zlashtirishdagi samaradorligini empirik tadqiqot asosida aniqlash va ushbu yo'nalishda izlanish olib borish maqsad qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyatga yo'naltirilgan til o'qitish strategiyalarining chet tilini o'zlashtirishdagi samaradorligi masalalari til va madaniyatning uzviy bog'liqligi, madaniyatlararo muloqotning shakllantirish hamda chet tilini haqiqiy muloqot sharoitida o'rgatish tamoyillari doirasida tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda ilmiy izlanish olib borgan olimlar sifatida Claire Kramersch, Michael Byram, H.Douglas Brown, Li Sun, Dell Hymes, Rod Ellis, Lyle Bachman, E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, I.A.Zimnyaya, A.Erkinov, D.X.Xodjayev, M.T.Shadjikova kabi tadqiqotchilarni e'tirof etish mumkin. Mazkur olimlarning izlanishlarida chet tilini o'qitishda madaniy komponentni moslashtirish, haqiqiy materiallardan foydalanish, muloqot va madaniyatlararo yondashuv asosida ta'limni tashkil etish masalalari umumiy tamoyillariga yo'nalishda yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida madaniyatga yo'naltirilgan strategiyalar o'quvchilarning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda pragmatik moslashuvi, kommunikativ faolligi va real nutq vaziyatlarida samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim metodik omil sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvlar mazkur tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Chet tilini o'rganish jarayonida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir til o'sha xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Tilni samarali o'zlashtirish faqat grammatik qoidalarni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki o'rganilayotgan til madaniyatini ham tushunishni talab qiladi. Shu sababli zamonaviy til o'qitish metodikasida madaniyatlararo yondashuv muhim o'rin egallaydi. Madaniy tushunchalar, milliy an'analar va kundalik hayotga oid iboralarni o'rganish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, turli xalqlarning madaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish o'quvchilarga til birliklarini real kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri qo'llash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz madaniyatiga xos ayrim tushunchalar tanlab olinib, ularning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilindi. Tanlangan madaniy elementlar o'quvchilarga nafaqat yangi leksik birliklarni o'zlashtirishga, balki madaniyatlararo muloqot jarayonida to'g'ri va mos ifodalardan foydalanishga yordam beradi. Mazkur tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

nafaqat choy ichiladigan joy, balki odamlar yig'ilib suhbatlashadigan, yangiliklar almashadigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi makondir. Ingliz madaniyatida bunga ma'lum darajada tea culture yoki choy ichish an'anasi o'xshashdir. Britaniyada "afternoon tea"

an'anasi mavjud bo'lib, u nafaqat ichimlik iste'moli, balki madaniy muloqot shakli sifatida ham qaraladi.

Milliy kiyimlar ham madaniyatning muhim belgilaridan biridir. O'zbek xalqining an'anaviy kiyimlaridan biri chopon bo'lib, u tarixan hurmat, mehmondo'stlik va milliy o'zlik ramzi sifatida qaraladi. G'arb jamiyatlarida esa ko'proq queue culture yoki navbat madaniyati ijtimoiy tartib va intizomni ifodalovchi muhim madaniy xususiyat hisoblanadi. Bu orqali jamiyatdagi tartib va bir-biriga hurmat ko'rinadi.

O'zbek madaniyatida sumalak va Navro'z kabi an'analar xalqning qadimiy urf-odatlarini va bahor bayrami bilan bog'liq marosimlarini ifodalaydi. Sumalak tayyorlash jarayoni odatda jamoaviy tarzda o'tadi va bu jarayon hamjihatlikni mustahkamlaydi. G'arb jamiyatlarida esa Christmas traditions muhim madaniy bayram hisoblanadi. Bu bayram oilaviy yig'ilishlar, sovg'alar almashish va diniy an'analar bilan bog'liq.

Oila bilan bog'liq an'analar ham madaniyatning muhim qismi hisoblanadi. O'zbeklarda beshik to'yi yangi tug'ilgan chaqaloq bilan bog'liq muhim marosim. Nihoyat, o'zbek jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida mahalla instituti muhim o'rin tutadi. Mahalla odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi, hamjihatlik va qo'ni-qo'shnichilikni rivojlantiruvchi tizim hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning tili va madaniyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, madaniy tushunchalar til orqali ifodalanadi. Turli madaniyatlarni qiyosiy o'rganish esa madaniy moslashuvchanlikni rivojlantirish va chet tilini o'rganish jarayonida madaniy kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida o'zbek va ingliz madaniyatiga xos ayrim madaniy tushunchalar qiyosiy tahlil qilindi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq madaniyatida ham kundalik turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlarni ifodalovchi o'ziga xos madaniy elementlar mavjud. O'zbek madaniyatida choyxona, mahalla, mehmondo'stlik, Navro'z, sumalak, palov kabi tushunchalar jamiyatning jamoaviylikka asoslanganligini,

insonlar o'rtasidagi yaqin ijtimoiy aloqalar muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Ayniqsa, mahalla instituti va kattalarga hurmat kabi qadriyatlar o'zbek jamiyatida ijtimoiy birdamlik va an'anaviy qadriyatlarning muhimligini namoyon etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek madaniyati ko'proq jamoaviylik, mehmondo'stlik va an'anaviy marosimlarga asoslangan bo'lsa, ingliz madaniyatida tartib, shaxsiy hududga hurmat va individual ijtimoiy xulq-atvor muhim o'rin tutadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eksperimental guruh talabalarini o'z nutqida tayyor grammatik qoliplar ko'ra mazmun va mohiyatga mos ifodalarni tanlashga intilgan. Ushbu farq madaniyatga yo'naltirilgan strategiyalarning muloqot samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, dars kuzatuvlari davomida eksperimental guruh talabalarining muloqot jarayonida tashabbus ko'rsatishi, savol berish va fikr bildirishga bo'lgan faolligi yuqoriroq ekanini aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari chet tilini o'rganish jarayonida til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz madaniyatiga xos ayrim tushunchalar qiyosiy tahlil qilindi, ularning til o'rganish jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'zlashtirish faqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini o'rganish bilan cheklanmaydi, balki o'rganilayotgan til egalari madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini va kommunikativ xulq-atvor me'yorlarini tushunishni ham talab qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek va ingliz madaniyatiga xos tushunchalar o'quvchilarga yangi leksik birliklarni o'rganish bilan birga ularni real muloqot vaziyatlarida to'g'ri qo'llash imkonini beradi. Masalan, o'zbek madaniyatidagi mehmondo'stlik, mahalla yoki Navro'z kabi tushunchalar jamiyatning jamoaviy qadriyatlarini aks ettirsa, ingliz madaniyatidagi small talk, tea culture yoki personal space kabi tushunchalar kundalik muloqot uslubi va ijtimoiy xulq-atvorni ifodalaydi. Bunday madaniy elementlarni o'rganish o'quvchilarning tilni chuqurroq anglashiga va muloqot jarayonida pragmatik xatolarning kamayishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Мясникова О.В. Культуро-ориентированное обучение иностранному языку в неязыковом вузе // Известия Алтайского государственного университета. Педагогика и психология. - 2013. - №2(78). - С. 44-47.
2. Минаева Э.В. Культурно-ориентированное обучение русскому языку как иностранному // Cutting-edge science - 2019: XV Международная научно-практическая конференция. – Sheffield: Science and Education LTD, 2019. - С. 33-36.
3. Erkinov, A. (2025). Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo kommunikatsiya va uning metodik asoslari. Toshkent: ilmiy-uslubiy qo'llanma.
4. Chet tili darsida madaniyatlararo aloqani o'rnatish // Journal of Universal Science Research. - 2023. - 1-jild, 12-son. - B. 117-124.
5. Shadjikova M.T., Annayeva E.T., Xudayberanova G.A. Chet tilini o'zlashtirishni rivojlantirish: samarali o'qitish strategiyalari va texnikalari // Innovatsionnaya nauka. – 2024. – №5(1). – B. 150-152.
6. Sun L. Teaching culture in the foreign language classroom // Theory and Practice in Language Studies. - 2013. - Vol. 3, №2. - P. 371-375.
7. Brown H.D. Principles of language learning and teaching. - New York: Pearson Education, 2007. - 410 p.
8. Ellis R. The study of second language acquisition. - Oxford: Oxford University Press, 2008. - 824 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-6084-son Farmon (2020-yil 20-oktabr). - Toshkent. <https://lex.uz/ru/docs/5058351>
10. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni (1989-yil 21-oktabr, keyingi tahrirlari bilan). - Toshkent. <https://lex.uz/docs/-121051>